TURKISTON HUDUDI STATISTIK MANBALARDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH VA TASHIB KETISHGA IXTISOSLASHGAN SANOAT KORXONALAR FAOLIYATI (1880-1917)

Sodiqova Sevara Julli qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
profsevaraxon@mail.com

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tashib ketishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari faoliyati haqida so‘z ketganda shuni ta’kidlash lozimki, mazkur davrga oid barcha tarixiy manbalar ham bu sohani keng o‘rganish imkonini bermaydi. Faqatgina statistik sharhlargina bunga keng imkon beradi. Ushbu turkumdagi manbalarning yilma-yil muntazam ravishda tuzib borilganligi qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarni izchil va aniq faktlar asosida o‘rganishga yordam beradi.

Hisobotlarda qishloq xo‘jaligi bo‘limi o‘lka uchun ahamiyatli soha sifatida juda katta sahifalarni egallaydi. Viloyatlar orasida eng ko‘p statistik sharh va ilovalar Farg‘ona, Sirdaryo hamda Samarqand viloyatlariga tegishli. Shu jihatdan ushbu viloyatlardagi ma’lumotlar ham katta hajmga ega.

1882-yildan boshlab yozilgan Farg‘ona viloyatiga tegishli hisobotlarda dastlabki davrda qishloq xo‘jaligi bo‘limlarida birinchi navbatda donli ekinlar to‘g‘risidagi statistik fakt va raqamlardan iborat ma’lumotlar berilgan. Sirdaryo viloyatiga oid hisobotlarda ham shu asnoda axborotlar tayyorlangan. Unda donli ekinlar turlari (bug‘doy, sholi, arpa va hokazo), ekilgan maydon hamda yig‘ib olingan hosil miqdori ko‘rsatilgan.

Statistik ilovalarda ushbu ma’lumotlar hatto uyezdlar bo‘yicha taqsimlangan holda yoritib borilgan. Farg‘ona viloyatiga tegishli statistik ilovalarda donli ekinlarga oid ma’lumotlar quyidagi tartibda ko‘rsatilgan:

a) ekilgan maydon (desyatina hisobida).

b) ekilgan urug‘ (pud hisobida).

v) yetishtirilgan hosil (pud hisobida).

1890-yildan keyingi statistik ilovalarda viloyatning ko‘chmanchi va o‘troq aholi tomonidan ekilgan va yetishtirilgan hosil miqdori alohida ko‘rsatilgan. Ushbu

qismda har bir aholiga o‘rtacha qancha don to‘g‘ri kelishi haqida ham ma’lumotlar (pud hisobida) berilgan. Unga ko‘ra, 1887-yili viloyatda bir kishi uchun 20 pud don to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1899-yili 12,5 pud don mahsulotlari taqsimlanganligi ma’lum qilinadi.

Ayrim Farg‘ona viloyatiga oid ilovalarda qishloq xo‘jaligi ekinlari egallagan maydonlar foizlarda ko‘rsatilgan. Jumladan, 1904-yili paxta maydonlari 31 %, bug‘doy - 28 %, sholi - 10 %, jo‘xori - 9 % yerni egallagan edi.

Statistik ilovalar ichida Farg‘onaga tegishli bo‘lgan 1900-yilgi hisobotni alohida qayd etish lozim. Uning oxirgi sahifalari maxsus statistik jadvallardan iborat bo‘lib, 1891-1900-yillar orasidagi donli ekinlar maydoni va olingan hosil jadvallarda ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, 1891-yili 11 715 min pud don yetishtirilgan bo‘lsa, 1900-yili ushbu raqam 25 479 ming pudga yetgan, ya’ni 10 yilda 2 barobar oshgan.

Sirdaryo viloyatiga oid manbalar ham yuqorida ta’kidlangan asosda tayyorlangan. Dastlabki 1885-yilgi statistik ilovada uch yillik don mahsulotlari 38 640 000 pud miqdorida bo‘lganligi ko‘rsatilgan. 1912-yilgi ilovada donli ekinlar maydoni 30 359 desyatina, olingan hosil 141 523 000 pud ekanligi qayd etilgan.

1888-yildan boshlab hisobotlar va statistik sharhlarda ekilgan paxta maydonlari va yetishtirilgan hosil miqdori muntazam berib borilgan, Mazkur manbalarga asosan 1888-yilda 25 800 desyatina bo‘lgan paxta maydonlari 1913-yilda 76726 desyatinaga yetgan, ya’ni 3 barobar ko‘paygan.

Turkiston general-gubernatorligi hududida paxtachilikdan keyin eng serdaromad soha ipakchilik bo‘lgan.

Rossiya sarmoyadorlari Turkistonda asrlar davomida rivojlanib kelgan mazkur sohaga ham katta qiziqish bilan qaraganlar. Uning rivojlanishi bilan hisobotlarda “ipakchilik” nomli bandlarda shu sohaga doir ma’lumotlar keng tarzda berib borilgan.

Mazkur sohaga oid statistik fakt va raqamlar hamda qiziqarli ma’lumotlar faqat statistik sharh va ilovalarda yaxshi yoritilgan.

O‘lkada ipakchilik sohasi Farg‘ona viloyatida yaxshi rivojlangan edi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dastlabki davrda bu soha unchalik taraqqiy etmagan. Mahalliy navlarni chidamsizligi oqibatida turli xil kasalliklar ipakchilikni rivojlanishiga imkon bermagan. Jumladan, 1890-yilgi statistik ilovada 20 yil davomida ‘pebrina” kasalligi ipakchilikka katta zarar yetkazganligi ta’kidlanadi. Lekin, keyingi yillar hisobotlaridagi faktlar hukumat ushbu serdaromad sohaga jiddiy e’tibor qaratganligini isbotlaydi.

Manbalarda yetishtirilgan ipak mahsulotlari pud hisobida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, Farg‘onada 1890-yili 51 325 pud ipak olingan bo‘lsa, 1910-yili uning miqdori 163 972 pudga yetgan, yoki, 20 yil davomida 3 barobarga oshgan.

Sharhlarda yetishtirilgan ipak pillasining baholanish narxlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, 1900-yili 1 pud ipak pillasi 6 rubldan 15 rublgacha baholangan bo‘lsa, 1910-yili bu ko‘rsatkich 10 rubl 50 kop. - 16 rubl 60 kop.ga yetgan. Ushbu raqamlardan shuni aniqlash mumkinki, turli yillarda narxlarning turli darajada bo‘lishi ipakka bo‘lgan talab va uning sifati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Statistik manbalarda chorvachilik sohasi ham yaxshi yoritilgan. Unda hududdagi chorvachilik ahvoli, chorva hayvonlari turlari, ularning soni hamda hayvonlarning bozordagi narxlari haqida ma’lumotlar berilgan.

1900-yilgi statistik ilovaga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida 750 000 ga yaqin xar hil yirik chorva hayvonlari va 1 400 000 ta mayda hayvonlar borligi ma’lum qilinadi. Ushbu manbada har bir hayvonlarning alohida miqdori ham berilgan. Unga ko‘ra, viloyatda qo‘y, ot va ho‘kiz kabi chorva hayvonlari soni ko‘proqni tashkil etgan. Shuningdek, manbalarda hisobot yilida nobud bo‘lgan chorva hayvonlari soni va uning sabablari ham ko‘rsatilgan. Jumladan, 1909-yilgi Farg‘ona harbiy gubernatori hisobotida ushbu yilda hayvonlar soni 55 000 taga kamayib ketganligi, buning sababi esa ko‘p yaylovlar o‘zlashtirib yuborilganligidandir, - deb ko‘rsatiladi.

1896-yilgi Samarqand viloyati hisobotida “qishning sovuq kelishi oqibatida Jizzax va Xo‘jand uyezdlaridagi ko‘chmanchi aholining summasi 1 200 000 rublga teng bo‘lgan 213 000 ta chorva hayvoni ochlik va sovuqdan o‘lib ketdi” - deb ma’lumot beriladi.

1910-yilgi Sirdaryo viloyatining statistik ilovasida “joriy yilda 251 069 ta chorva hayvoni yem-xashakning yo‘qligi hamda otlar orasida kasallik tarqalishi oqibatida nobud bo‘ldi” - deb xabar qilinadi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, viloyatlar orasida eng ko‘p chorva hayvonlari Sirdaryo viloyatida bo‘lgan, 1910-yilgi ma’lumotga ko‘ra, jami hayvonlarning umumiy miqdori 8 449 468 tani tashkil etgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, manbalarda chorva hayvonlarining bozordagi o‘rtacha narxlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, viloyatlar bozorlaridagi narxlar bir-biriga yaqin bo‘lgan. Jumladan, Farg‘onada 1892-yili ot 27-29 rubl, qo‘y 7-9 rubl, sigir 12-15 rublga baholangan bo‘lsa, shu yili Samarqand bozorlarida ot 28 rubl, qo‘y 7 rubl 50 k, sigir 14 rublga teng bo‘lgan. Rossiya, imperiyasi davrida sanoat ishlab chiqarishi yuzaga kelib, kengayib bordi. Lekin,

o‘lkada fabrika-zavod sanoatining asosini paxta tozalash korxonalari tashkil etgani tasodifiy emas, albatta. Chunki, metropoliyaning sanoat sohasidagi siyosatida o‘lkada yetishtiriladigan paxta birinchi navbatda zarur edi.

XX asr boshlaridan paxta tozalash zavodlari bilan bir qatorda yog‘ zavodlari qurilishiga ham e’tibor kuchaydi. O‘rta Osiyo va Orenburg Toshkent temir yo‘llari ishga tushirilgandan keyin ilgari mahalliy aholi tomonidan deyarli iste’mol qilinmagan yog‘ zavodlarining mahsulotlari Rossiyaning markaziy hududlariga tashib ketila boshlandi. Rossiyada o‘sha vaqtda o‘simlik va mol yog‘lari narxlarining ko‘tarilishi arzon paxta yog‘iga bo‘lgan talabni yanada oshirdi. Tashqi bozorda paxta yog‘iga bo‘lgan talabning oshib borishi tufayli, qisqa vaqt ichida zavodchi K.M.Solovev Chust, Namangan va Andijonda uchta yirik zavod qurdi. Bundan tashqari, Mikirtichevning Ashxabodda, Antonovning Marvda, Sarimsoqovning Marg‘ilonda o‘rtacha quvvatga ega bo‘lgan zavodlari ishga tushirildi.

Paxta tozalash zavodlarining soni ortib borishi bilan paxta yog‘i ishlab chiqaruvchi zavodlar ham ko‘payib borganligi statistik manbalardagi ma’lumotlarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, ularning soni Farg‘ona viloyatida 1904-yilda 6 ta, 1910-yili 17 tani tashkil etgan bo‘lsa, Samarqand viloyatida 1909-yilda 1776 taga yaqin kichik yog‘-moy zavodlari faoliyat ko‘rsatgan. Ular ishlab chiqargan mahsulotlar 479960 rubl miqdorida bo‘lgan.

Ta’kidlash kerak, sanoatning boshqa sohalariga nisbatan sanoat usulida yog‘ ishlab chiqarish qariyb ikki barobar o‘sdi. Masalan, 1908-yildan 1917-yilgacha o‘lkada yog‘ zavodlari 24 tadan 40 taga ko‘payib, yog‘ ishlab chiqarish esa, 28 ming tonnadan 54 ming tonnaga ko‘paydi. Ayniqsa, 1915-1916-yillarda sanoatning bu tarmog‘i yuqori ko‘rsatkichga erishgan. Birgina 1916-yili 66 ming tonna yog‘ ishlab chiqarilgan. Har bir zavodning o‘rtacha ishlab chiqarish hajmi 102633 litrni tashkil etgan. Bunga xom ashyoning ko‘payishi va ko‘nchilik zavodlarining chet el uskunalari bilan jihozlanishi orqali erishilgan. Bu uskunalar nafaqat Rossiya zavodlarinikidan, balki AQSH zavodlarinikidan ham qolishmagan. Paxta zavodlarining shirkatlarga birlashishi, ularning ish faoliyatini yanada kuchaytirdi, yog‘ zavodlarini esa ortiqcha xom ashyo bilan ta’minlanish imkoniyati kengaydi.

Turkiston o‘lkasida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ham taraqqiy etgan. 1907-yilgi hisobotga ko‘ra bunday korxonalar soni 501 tani tashkil etib, umumiy ishchilar soni 1 508 ta, bir yillik ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati 477 470 rublga teng bo‘lgan.

Xullas, statistik ilova va sharhlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va tashib ketishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari faoliyatiga oid bo‘lgan materiallar berilgan bo‘lib, ularda bu ma’lumotlar har bir viloyatning iqtisodiy sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqqan holda berilgan. Bu esa, ulardagi qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini, sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni paytda, statistik manbalardagi faktlar tahlili hukumatning o‘lkani xom-ashyo bazasiga aylantirish jarayonini ham aniq ko‘rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Демидов А. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промыш¬ленности Туркестана. – М: Госиздат, 1926.
2. Заорская В.В. и Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград: Екатеринская типография, 1915.
3. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми - XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. Ўкув қўлланма. – Т: «IQTISODMOLIYA», 2008.
4. Обзор Ферганской области за 1892 год. – Новый Маргелан, 1894.
5. Обзор Ферганской области за 1900 год. – Новый Маргелан, 1901.
6. Обзор Сырдарьинской области за 1885 год. – СПб., 1886.
7. Обзор Сырдарьинской области за 1910 год. – Ташкент, 1912.
8. Статистический обзор Ферганской области за 1905 год. – Скобелев, 1908.
9. O’z MA. 18-jamg’arma.
10. O’z MA. 19-jamg’arma.